



AN'ANAVIY VA ISLOM MIKROMOLIYALASH MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI

Axmedova O'g'ilshod Musurmonqul qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi (PhD) doktoranti

ORCID: 0000-0002-2253-077X

E-mail: ugilshod.akhmedova@gmail.com

COMPARATIVE ANALYSIS OF TRADITIONAL AND ISLAMIC MICROFINANCE MODELS

Akhmedova Ugilshod Musurmonkul kizi

PhD student at the Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" at the Tashkent State University of Economics

ORCID: 0000-0002-2253-077X

E-mail: ugilshod.akhmedova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mikromoliya tashkilotlari va ularning modellari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Mikromoliya tashkilotlari ikkita alohida yo'nalishga – an'anaviy va islom mikromoliyalash modellariga ajratilib ko'rib chiqilgan. An'anaviy mikromoliyalash modellaridan Grameen bank modeli, qishloq banki modeli, kredit uyushmasi, o'z-o'ziga yordam guruhlari modeli, aylanuvchi jamg'arma va kredit uyushmasi modellari keng tarqalgan modellar sifatida ko'rib chiqilgan. Islom mikromoliyalash modellari esa foyda olishga asoslangan (tijorat) va xayriyaga asoslangan (notijorat) ikkita asosiy shakllarga ajratilib ko'rib chiqilgan. Foyda olishga asoslangan modelda mikromoliya tashkiloti mushoraka, mudoraba, vadia va sukuk instrumentlari asosida dastlabki mablag'larni jalb qiladi. Xayriyaga asoslangan modelda vaqf, zakot va sadaqa instrumentlari asosida dastlabki mablag'larni jalb qiladi. Ushbu modellarning turlari, faoliyati, ular tomonidan taqdim etiladigan xizmat va mahsulotlar, shuningdek boshqa o'ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan o'rganilgan va qiyosiy tahlil qilingan.

Abstract. This article discusses microfinance organizations and their models. Microfinance organizations are considered in two separate directions - traditional and Islamic microfinance models. Among the traditional microfinance models, Grameen bank model, rural banking model, credit union, self-help group model, rotating savings and credit association models were considered as the most common models. Islamic microfinance models are divided into two main forms: profit-based (commercial) and charitable (non-commercial). In the profit-based model, a microfinance organization raises initial funds based on musharaka, mudaraba, wadia, and sukuk instruments. In the charity-based model, it raises initial funds based on waqf, zakat, and sadaqa instruments. The study theoretically examines and comparatively analyzes the types, activities, services, and products provided by these models, as well as other specific features.

Kalit so'zlar: mikromoliya modellari, islom moliyasi instrumentlari, Grameen bank modeli, qishloq banki modeli, kredit uyushmasi, o'z-o'ziga yordam guruhlari modeli, aylanuvchi jamg'arma va kredit

uyushmasi modeli.

Keywords: *microfinance models, Islamic finance instruments, Grameen bank model, rural banking model, credit union, self-help group model, rotating savings and credit association.*

Kirish. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda qariyb 700 million kishi (dunyo aholisining 8,5 foizi) kuniga 2,15 dollardan kam mablag' evaziga o'ta qashshoqlikda yashaydi [27]. Taxminan 3,5 milliard kishi (dunyo aholi sonining 44 foizi) yuqori o'rta daromadli davlatlar uchun dolzarb bo'lgan mezon asosida (kuniga 6,85 dollar) kambag'al hisoblanadi. Jahon Banki 2030-yilda 622 million kishi (dunyo aholisining 7,3 foizi) o'ta qashshoqlikda yashashini prognoz qilmoqda. Bu shuni anglatadiki, 2024-2030-yillar oralig'ida 69 millionga yaqin odam o'ta qashshoqlikdan qutulishi kutilmoqda, taqqoslash uchun, 2013-2019-yillar oralig'ida esa 150 millionga yaqin odam qashshoqlikdan qutulgan edi. Bundan tashqari, 3,4 milliard kishi (dunyo aholisining qariyb 40 foizi) kuniga 6,85 dollardan kam pul bilan yashashi kutilmoqda. Agar iqtisodiy o'sish tezlashmasa va yanada inklyuziv bo'lmasa, o'ta qashshoqlikni yo'q qilish o'nlab yillarni, odamlarni kuniga 6,85 dollar qashshoqlik chegarasidan yuqoriga ko'tarish esa yuz yildan ortiq vaqtni talab qiladi.

Bunaqa sharoitda mehnat daromadlarini oshirish uchun ko'proq va sifatli ish o'rinlarini yaratish hamda ta'lim, infratuzilma va asosiy xizmatlarga sarmoya kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qashshoqlikda yashayotgan odamlarga iqtisodiy o'sishdan ko'proq foyda olish va o'z hissalarini qo'shishga imkon beradi, shuningdek, tobora ortib borayotgan iqtisodiy va siyosiy zarbalarga qarshi ularning barqarorligini oshiradi. Aynan shu maqsadlarga erishish vositasi sifatida mikromoliya tashkilotlari yechim bo'lib

xizmat qilishi mumkin. Mikromoliya tashkilotlari hamda ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar moliyaviy inklyuzivlik sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashkilotlar kichik va o'rta biznes subyektlariga, shu bilan birga, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Jahon banking baholashicha, dunyoda 1,4 milliard kishi bank xizmatlaridan foydalanmaydi [26]. Moliyaviy inkluzivlikning mavjud emasligi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi oddiy fuqarolar hamda kichik tadbirkorlar uchun jiddiy to'siq hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, mikro, kichik va o'rta korxonalar dunyo bo'yicha barcha korxonalarining 90 foizini, ish bilan bandlikning 70 foizdan ortig'ini va YaIMning 50 foizini tashkil etadi [25]. Shu sababli, ular o'z faoliyatini kengaytirish, mahsulot buyurtmalarining ko'payishi va o'sib borayotgan talabni boshqarish uchun zarur resurslar va vositalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Moliyaviy inkluzivlikni ta'minlashda asosiy aholisi musulmon bo'lgan davlatlarda, aholining diniy qarashlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Aynan bunday mamlakatlarda islom mikromoliya tashkilotlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metod. Mikromoliya tashkilotlarining modellarini tahlil qilarkanmiz, avvalo, ushbu turdagi tashkilotlarning boshqa turdagi moliyaviy tashkilotlardan ajratib olishimiz va undan keyin an'anaviy hamda islom mikromoliya tashkilotlarining o'zaro farqlari asosida ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Mikromoliya dunyo bo'ylab qashshoqlikka qarshi kurashda kuchli moliyaviy mexanizm sifatida rivojlanib kelmoqda [18]. Mikromoliya zamonaviy konsepsiya sifatida birinchi bo'lib Nobel

mukofoti laureati professor Muhammad Yunus 1976-yilda tatbiq etilgan edi.

Ammo, mikromoliyalashning asosiy go'yalari nisbatan oldinroq paydo bo'lgan deya baholash mumkin. Ayrim tadqiqotchilar XIX asr o'rtalaridagi Germaniyada iste'mol krediti kooperativlarining rivojlanishi mikromoliyaning paydo bo'lishining boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'rsatishadi [8], shuningdek, XV asrdagi o'rta asr Yevropasining monastir jamoalari va lombardlari bunday tashkilotlarning paydo bo'lishida asosiy shart-sharoitni yaratgan degan fikrlar ham mavjud [23].

Bugungi kunda banklardan farqli o'laroq, mikromoliya tashkilotlari uchun o'z mablag'larining minimal miqdori, kapitalning yetarliligi va zaxiralash bo'yicha ancha kichik cheklovlar belgilanadi yoki bunday cheklovlar umuman mavjud bo'lmaydi [24].

Islom mikromoliya tashkilotlari esa Islom shariati qonun-qoidalari asosida faoliyat olib boradigan mikromoliya tashkilotlari hisoblanadi.

Islom mikromoliyasi moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan qarz oluvchilar uchun to'lov shartlarini uzaytirish, shuningdek, qimor o'yinlari va spirtli ichimliklar kabi shariat tomonidan taqiqlangan faoliyatga sarmoya kiritishdan qochish orqali moliyaviy operatsiyalarning axloqiy jihatlariga urg'u beradi [2]. Aynan mana shu xususiyat islom mikromoliyasi faoliyatini yanada barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli qiladi, ayniqsa musulmonlar ko'p bo'lgan mamlakatlarda bunday qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

Yuqori foiz stavkalari tufayli qashshoqlikni bartaraf etishda samarasizligi uchun tez-tez tanqid qilinadigan an'anaviy mikromoliyadan farqli o'laroq, islom mikromoliyasi, ayniqsa musulmon mamlakatlarida qashshoqlikni kamaytirish va turmush sharoitini yaxshilashda samarali ekanligi isbotlangan. Bunga yanada qulayroq

moliyaviy mahsulotlar va adolatli kreditlash shartlari orqali erishiladi [5].

Operatsion model nuqtai nazaridan, an'anaviy mikromoliya turli xil moliyaviy mahsulotlarga osongina moslashtirilishi mumkin bo'lgan foiz stavkalaridan foydalanadi [14]. Biroq, islom mikromoliyasi shariat tamoyillariga rioya qilishni talab qiladi, bu esa foizlar va ma'lum noaniqliklarga ega bo'lgan shartnomalar (g'arar) kabi ba'zi moliyaviy vositalardan foydalanishga cheklovlar qo'yadi, va shu sababli, qo'shimcha huquqiy va operatsion shaffoflikni talab qiladi [2]. Ushbu qo'shimcha talablar ba'zi moliyaviy institutlarning samarali ishlashini qiyinlashtirishi mumkin, ammo ular qarz oluvchilar uchun ko'proq xavfsizlik va adolatni ta'minlaydi.

Munozara. Bugungi kunda ko'pgina mikromoliya tashkilotlari (MMT) gibrid xarakterga ega bo'lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni o'zlariga maqsad qilib olgan [6]. Bundan tashqari, mikromoliya xizmatlari hozirda faqat mikrokredit bilan cheklanib qolmay, balki mikrojamg'armalar, mikrosug'urta va pul o'tkazmalari kabi xizmatlarni ham rivojlanayotgan dunyodagi keng ko'lamli mijozlar uchun taklif qilmoqda [13].

Dunyoda mavjud mikromoliya modellarining aniq soni yo'q, chunki MMTlar o'z tuzulishi va faoliyatini amalga oshirish uslublariga ko'ra juda xilma-xil [12]. Tarixiy jihatdan mikromoliya modeli garovga asoslangan kreditlashga tayanib kelgan, ammo MMTlar endilikda o'zaro tanlangan qarz oluvchilar guruhlari tomonidan ijtimoiy kredit nazorati, xayriya va depozitlardan mablag'larni shakllantirish orqali mavjud moliyaviy tizimni samarali ravishda to'ldirib kelmoqda.

MMTlar o'zlarining huquqiy maqomi va kreditlash texnologiyasiga ko'ra turli xil turlarga ajralib, bu raqobatni kuchaytirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish doirasini

kengaytirish va sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik ta'sirini yaratib kelmoqda [22].

Mikromoliya tashkilotlari, xoh an'anaviy bo'lsin, xoh shariat tamoyillari asosida faoliyat olib boradigan bo'lsin, ma'lum modellarga asoslangan bo'ladi. Aynan o'sha model tashkilotning kapitali shakllantirishi, mikromoliylashning hajmi, daromad va xarajat, foyda va zarar haqidagi muhim ma'lumotlarni qamrab oladigan mikromoliya dasturlaridan iborat bo'ladi.

Dastlab, an'anaviy mikromoliya tashkilotlariga xos bo'lgan asosiy modellarni ko'rib chiqaylik:

Grameen Bank modeli ko'plab mamlakatlarda turlicha sharoitlarda qo'llanilgan model hisoblanadi. Unda shaxslar kichik guruhlarni tashkil qilib birlashadilar va mikrokredit tashkilotini tashkil etishadi. Avval mablag' tashqi donordan jalb qilinadi, keyinchalik a'zolarining majburiy jamg'armalari asosida kengaytiriladi va tashqi manbalardan qaramlikdan chiqiladi [16]. Model asosan mablag'larni ayollar guruhlarini o'z ichiga olgan kambag'allarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Ushbu modelda qarz oluvchilar guruhlarini rag'batlantirish va nazorat qilish uchun xodimlardan intensiv ishlashni talab qiladi. Guruhlar odatda besh a'zodan iborat bo'lib, ular bir-birining kreditlarini kafolatlaydi [3], shu sababli, bankdan kredit olish uchun hech qanday garov talab qilinmaydi. Grameen bank modeli har doim ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qilishni ustuvor vazifa qilib kelgan.

Qishloq banki modeli o'z mahalliy jamoalariga xizmat ko'rsatadigan kredit va jamg'arma kooperativlarida foydalaniladi. Ular ko'pincha o'z-o'zini ish bilan ta'minlash orqali hayotini yaxshilashni istaydigan 25-50 nafar kam daromadli insonlardan tashkil topgan bo'ladi [15]. Bunaqa turdagi mikromoliya tashkilotlarining dastlabki qarz kapitali mablag'lari tashqi manbalardan

olinishi mumkin, biroq a'zolar bankni o'zlari boshqaradilar: ular o'z a'zolarini tanlaydilar, rahbarlarini saylaydilar, nizomlarini yozadilar, shaxslarga kreditlar ajratadilar, to'lovlar va jamg'armalarni yig'adilar. Ularning kreditlari ma'naviy garov bilan ta'minlanadi, ya'ni jamoa har bir individual kredit uchun javobgar bo'lishini kafolatlaydi.

Kreditni to'liq to'lagan mijoz keyingi kreditlar olish huquqiga ega bo'lib, kredit miqdori qishloq banki a'zolarining jamg'armalarni to'plashdagi miqdoriga uzviy bog'liq bo'ladi. Qishloq bankida to'plangan jamg'armalar ham moliyalashtirish uchun foydalaniladi. Qishloq banki ichki kapitali yetarli darajaga yetganda, u qaramlikdan chiqib o'zini o'zi ta'minlaydigan muassasaga aylanadi [19].

Kredit uyushmasi o'zaro moliyalashtirishga asoslangan, o'z a'zolarga tegishli va ular tomonidan boshqariladigan moliyaviy kooperativdir [15]. Uyushma a'zolari o'z mablag'larini birlashtiradilar va kooperativ aksiyalarini sotib olishadi.

A'zolar bir-biri bilan umumiy aloqaga ega bo'ladi, masalan, bir kompaniyada ishlashlari, bir diniy jamoaga mansub bo'lishlari, kasaba uyushmasiga a'zo bo'lishlari, yoki bir hududda yashash va ishlashlari kabi.

Natijada uyushma a'zolari bir-birlariga qulay kreditlar, talab qilinadigan depozit hisoblari va boshqa moliyaviy mahsulotlar hamda xizmatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishadi [19]. Olingan har qanday daromad jamiyat va uning a'zolari manfaatlariga xizmat qiladigan loyihalar hamda xizmatlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

O'z-o'ziga yordam guruhlari modelida har bir guruh daromad jihatidan bir xil bo'lgan o'n-yigirma beshga atrofidagi a'zodan iborat bo'ladi. Ushbu guruhlar kambag'al odamlarning kichik, iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqin guruhi bo'lib, u o'z a'zolarining

favqulodda ehtiyojlarini qondirish maqsadida muntazam ravishda umumiy jamg'armaga pul yig'adi. Bu jamg'arma guruh tomonidan belgilangan shartlar asosida garovsiz va past foizli kreditlar berish uchun ishlatiladi [11]. Guruhlar, shuningdek, ichki resurslarni to'ldirish uchun tashqi moliyalashtirish manbalarini ham qidiradi. Kredit berish shartlari guruh a'zolarining demokratik qarorlariga asoslangan holda belgilanadi.

Aylanuvchi jamg'arma va kredit uyushmasi modeli (Rotating savings and credit association, ROSCA) oddiygina bir guruh odamlar bo'lib, ular birgalikda yig'ilib, umumiy fondga muntazam ravishda davriy

badallar kiritadilar, keyinchalik ular har bir siklda bir a'zoga bir martalik miqdorda beriladi [21]. ROSCAlar a'zolar soni, hissa qo'shish chastotasi, hissa miqdori kabi kriteriyalar bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi [4]. Masalan, 12 kishidan iborat guruh bir yil davomida oyiga 100 000 so'mdan berishsa, har oy yig'ilgan 1 200 000 so'm bir a'zoga berib boriladi. Shunday qilib, a'zo o'zining muntazam oylik badallari orqali boshqa a'zolarga pul "qarz beradi". Bir martalik pulni olish navbati kelganda (ya'ni, guruhdan "qarz olish"), u uni muntazam/keyingi oylik badallar shaklida qaytaradi.

Grameen Bank modeli	• Xalqaro va davlat tashkilotlari kreditlari
Qishloq banki modeli	• Tashqi kreditlar
Kredit uyushmasi modeli	• A'zolar ustav kapitali
O'z-o'ziga yordam guruhlari modeli	• A'zolar jamg'armalari
Aylanuvchi jamg'arma va kredit uyushmasi modeli	• A'zolarining siklik badallari

1-rasm. An'anaviy mikromoliya tashkilotlarining dastlabki moliyalashtirish manbalari¹

Yuqoridagi ko'rib chiqilgan beshta modelning asosiy farqlaridan birini dastlabki moliyalashtirish manbalarida deya baholash mumkin (1-rasm).

Mikromoliya tashkilotlarining faoliyatini tor ma'noda mikroqarz va mikro kreditlar taqdim etishdan iborat deyilsa, keng ma'noda u bir qancha moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishni o'z ichiga oladi [17]. Misol uchun, mikrolizing, mikrojamg'armalar,

mikrosug'urtalar, pul o'tkazmalari va konsalting xizmatlari.

An'anaviy mikromoliya tashkilotlarining asosiy xizmat turi hisoblangan mikro kreditlarni uchta asosiy guruhga ajratishimiz mumkin (2-rasm). Ular quyidagicha: odatda uzoq muddatli bo'lmagan tovar-mahsulotlarni sotib olishni moliyalashtirishga qaratilgan iste'mol krediti; yangi biznes boshlashga yoki uni rivojlantirishga

¹ Muallif ishlanmasi.

yordam beradigan mikrokredit (deyarli garovsiz, kichik hajmli);

kichik va o'rta biznesga har doim garov bilan beriladigan korporativ kredit.

Iste'mol krediti	<ul style="list-style-type: none"> • Uzoq va qisqa muddatli tovarlar uchun kredit • Kreditni to'lash muddati daromadga bog'liq bo'ladi
Mikrokredit	<ul style="list-style-type: none"> • Tadbirkorga biznesni yo'lga qo'yish yoki rivojlantirish uchun kredit • kredit foizi bilan qaytariladi, garov yo'q
Korporativ kredit	<ul style="list-style-type: none"> • Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun kredit • Garov talab qilinadi

2-rasm. Kredit toifalarini segmentlash [19]

Umuman olganda Islom mikromoliyasi islom moliyalashtirish tamoyillari va moliyaviy inklyuzivlik konsepsiyasining uyg'unligidir [7]. Islom mikromoliyasida mikromoliya tashkilotining dastlabki manbalarini (ustav kapitali) shakllanishi va undan keyingi faoliyati shariat tamoyillariga asoslanishi zarur hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar uchun moliyalashtirish manbalari quyidagi islom moliyasi instrumentlari yordamida shakllanishi mumkin:

1. Mushoraka – hissadorlar ulushi yordamida. Sheriklar hissadorlar sifatida mikromoliya tashkilotini tashkil etishadi. Faoliyatdan olingan foyda avvaldan kelishilgan nisbatda sheriklar o'rtasida taqsimlanadi, zarar esa kiritilgan mablag'ning nisbatiga, ya'ni ustav kapitalidagi ulushga asosan taqsimlanadi.

2. Mudoraba va vadia – depozitlar yordamida. Jismoniy va yuridik shaxslarning kiritilgan mablag'larini islom mikromoliya tashkiloti vadiada vakil sifatida, mudorabada esa mudorib sifatida tasarruf etadi.

3. Sukuk – islom qimmatli qog'oz yordamida. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali mablag' shakllantiriladi.


4. Vaqf, zakot va sadaqa – xayriya instrumentlari yordamida. Yuridik va jismoniy

shaxslardan tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan mablag' beriladi. Zakot musulmonlar uchun har yili o'z molining belgilangan qismidan to'lanadigan majburiy to'lovdir. Sadaqa esa majburiy emas va miqdori ham qat'iy belgilanmagan. Vaqf orqali odamlar o'z mol-mulkingning bir qismini diniy yoki xayriya maqsadlariga yo'naltiradilar [20].

Islom mikromoliyalash modellariga keladigan bo'lsak, A.Tursunov o'zining ishida Islom mikromoliyasi faoliyat turiga ko'ra tijorat va notijorat shakllariga bo'lib ko'rsatadi. Shuningdek, u tijorat shakllari Islom banklari paydo bo'lishi bilan vujudga kelganligini, notijorat shakllari esa Islom dini kelishi bilan vujudga kelganligini ta'kidlab o'tadi [18].

Golzare Nabi va Aminul Islam ham o'z ishlarida Islom mikromoliyalash modellarini foyda olishga asoslangan va xayriyaga asoslangan modellarga bo'lib ko'rsatadi [10].

Ishlash mexanizmlari va manbalaridagi farqlarini hisobga olgan holda, islom mikromoliyasi faoliyatini shu ikkita – foyda olishga asoslangan va xayriyaga asoslangan, ya'ni tijorat va notijorat – modellariga ajratgan holda ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deya hisoblaymiz. Bu ikkala modellarning asosiy farqi ularning moliyalashtirish manbalari jihatidan farq qiladi (3-rasm).



3-rasm. Islom mikromoliyash faoliyati modellari²

Ishlash mexanizmlari va manbalaridagi farqlarini hisobga olgan holda, islom mikromoliyasi faoliyatini shu ikkita – foyda olishga asoslangan va xayriyaga asoslangan, ya'ni tijorat va notijorat – modellariga ajratgan holda ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deya hisoblaymiz. Bu ikkala modellarning asosiy farqi ularning moliyalashtirish manbalari jihatidan farq qiladi (3-rasm).

Xayriyaga asoslangan modelning maqsadli guruhi o'ta kambag'al iqtisodiy faol emas va hayotning asosiy ehtiyojlari (oziq-

ovqat, boshpana, sog'liqni saqlash va hokazo) uchun iste'mol fondlariga muhtoj aholi hisoblanadi. Shu bilan birga, aholining bu qismini ma'lum darajada o'qitish yoki texnik ko'nikmalar bilan ta'minlash orqali iqtisodiy faol qilish, boshqacha aytganda, ularning ijtimoiy va iqtisodiy yuksalishini barqaror qilish muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Islom mikromoliya tashkilotlarining asosiy xizmatlari va ularning muhim jihatlarini quyidagi 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin. Ushbu tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ham islom moliyasi instrumentlari asosida ishlaydi.

1-jadval.

Islom mikromoliya xizmatlarining turlarining tavsifi [19]

	F			IMT riski	
M	Asosiy vositalar va uy sotib olish				
		O'rtacha		O'rtacha	o'p qo'llaniladi
o	Uzoq va qisqa Aktivlar sotib olish	O'rtacha		O'rtacha	Boshqaruv va nazorat qilish xarajatlari arzon, to'lash tizimi ham oson, shuning sababli, eng ko'p qo'llaniladigan xizmat hisoblanadi.
zi hasan				O'rtacha	Asosan ehson mablag'laridan moliyalashtiriladi va chegaralangan bo'ladi.
	g'				Ushbu xizmat qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi, ayniqsa fermerlar uchun muhim ahamiyatga ega.

o				kapital o'rtasida islom umumiyasidagi	bu umumiyasidagi
				Mudorabada MMT kapital bilan ta'minlanadi va mijoz esa biznesi olib boradi.	Foyda agar mavjud bo'lsa, MMT va investitsiya mijozi

Mudoraba. Mudoraba mehnat va

² Muallif ishlanmasi.

o'rtasida oldindan belgilangan nisbatda taqsimlanadi; agar zarar ko'rilsa, bank butun zararni o'z zimmasiga olishi kerak.

Mushoraka. Mushorakada har bir sherik ushbu hamkorlik biznesida kapital mablag'larini taqdim etishi kerak. MMT ham, investitsiya mijozi ham biznesni boshqarishda ishtirok etish huquqini o'zida saqlab qolishi mumkin. Shu bilan birga, MMT investitsiya mijoziga butun biznesni boshqarishga ruxsat berishni tanlashi ham mumkin. Amalda, investitsiya mijozi odatda biznesni olib boradi. Foyda MMT va investitsiya mijozi o'rtasida oldindan belgilangan nisbatda taqsimlanadi. Zarar, agar mavjud bo'lsa, kiritilgan kapital nisbati bo'yicha MMT va investitsiya mijozi tomonidan qoplanadi.

Murobaha. Shartnoma bo'yicha qo'shimcha foyda bilan sotib olish va sotish murobaha deb ataladi. Bunday holda, mijoz MMTdan unga ma'lum tovarlarni sotib olishni so'raydi. MMT tovarlarni mijozning spetsifikatsiyasi va talabiga binoan sotib oladi. Mijoz tovarni shartnoma bo'yicha qo'shimcha foydani o'z ichiga olgan narxni to'lagan holda oladi. Bu usulida sotib olish/tannarx narxi va foyda alohida ko'rsatilishi kerak.

Salam. Salam oldindan sotib olishni anglatadi. Bu asosan qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan usul bo'lib, unga ko'ra, tovar kelajakda belgilangan vaqtda yetkazilib

berilishi sharti bilan xaridor tovarning narxini oldindan to'laydi. Sotuvchi tovarni belgilangan muddatda yetkazib beradi.

Istisno. Istisno bu xaridor va sotuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'lib, unga ko'ra sotuvchi va xaridor xaridor tomonidan belgilangan ma'lum tovarlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga kelishishadi. Istisno shartnomasi ishlab chiqaruvchi yoki zavod egasi unga ma'lum bir kelishilgan narxda ma'lum tovarlarni ishlab chiqarish uchun shaxs yoki muassasa tomonidan berilgan taklifni qabul qilganda amalga oshiriladi.

Ijara. Bunda moliya tashkiloti mijozning talabiga ko'ra, aktivni ma'lum muddatga ijaraga berish va ijara to'lovlarini to'lash bo'yicha aktivni ijaraga sotib oladigan shartnoma. Ijaraga oluvchi tashkilotga aktivlar/mulklardan foydalanganlik uchun belgilangan miqdorda ijara haqini to'laydi va shartnoma muddati tugagandan so'ng uni tashkilotga qaytaradi. Shu bilan birga, ijara muddati tugagach, aktiv mijozga kelishilgan narxda sotilishi ham mumkin.

Qarzi hasan. Bu qarz oluvchini qarz beruvchiga muddati tugagandan so'ng qarzga olingan asosiy qarzni to'lash majburiyatini yuklaydigan qarz turi. Biroq, qarz oluvchi, asosiy qarz miqdoridan yuqori bo'lgan istalgan miqdorni to'lash orqali qarz beruvchini mukofotlash huquqiga ega.

2-jadval.

An'anaviy mikromoliya va islom mikromoliyasi o'rtasidagi farq [1]

Xizmat turlari	An'anaviy mikromoliya	Islom mikromoliyasi
Passivlari	Ta'sischi ulushi, deposit mablag'lari	Ta'sischi ulushi, deposit mablag'lari, zakot va vaqf mablag'lari
Aktivlari	Asosiy vositalar, foizli kreditlar	Asosiy vositalar, islomiy moliyaviy instrumentlar
Moliyalashtirish shakli	Pul (naqd yoki naqdsiz) ko'rinishida	Aktiv yoki tovar ko'rinishida
Maqsadli guruhlar	Ayollar	Oila
Xodimlarni	Pul ko'rinishida	Pul ko'rinishida va diniy

rag'batlantirish		
Qarzni qaytarolmay qolganda	Guruh a'zolariga bosim beriladi	Oila a'zolariga bosim beriladi
Ijtimoiy rivojlanish dasturi	Dunyoviy, xulq-atvor, axloqiy va ijtimoiy rivojlanish	Diniy xulq-atvorni o'z ichiga oladi

2-jadvalda an'anaviy mikromoliya va islom mikromoliyasining asosiy farqlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Tashkilotning passivlari, ya'ni mablag'lar manbalari sifatida Islom mikromoliyasida zakot va vaqf mablag'larining kiritilishi ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Aktivlar sifatida asosiy vositalar va foizli kreditlar o'rniga islomiy moliyaviy instrumentlarining qo'llanilishi ribodan qochishni ta'minlaydi. Moliyalashtirish shakliga kelsak, Islom mikromoliyasida moliyalashtirish naqd yoki naqdsiz pul shaklidan ko'ra aktiv yoki tovar ko'rinishida amalga oshiriladi. An'anaviy mikromoliyada asosan ayollarni qo'llab-quvvatlashga urg'u beriladigan bo'lsa, islom mikromoliyasida oila instituti ustuvor hisoblanadi. Qarzni qaytarishda Islom mikromoliyasida qarzdorni ogohlantirishda oila a'zolarining ishtiroki ta'minlanadi, bu ham o'z navbatida ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi.

Xulosa. Yuqorida an'anaviy va islom mikromoliya modellarini ko'rib chiqdik. Aslida har ikkala yo'nalishdagi mikromoliya tashkilotlarini ijtimoiy yo'naltirilganligi,

kambag'alikka qarshi kurash, moliyaviy inkluzivlikni ta'minlash kabi tamoyillari birlashtiradi. Lekin islom mikromoliya tashkilotlari islom shariati tamoyillari asosida faoliyat olib borishi ushbu tizimning o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Mikromoliya tashkilotlarining modellari Islom mikromoliyasining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, ushbu turdagi moliya tashkilotlarining manbasi xayriyaga asoslangan manbalardan (vaqf va zakot) ham tashkil topishi mumkin.

An'anaviy mikromoliyalash modellari asosan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar uchun oson o'zgartirilishi mumkin bo'lgan foiz stavkalaridan foydalanadi. Islom mikromoliya tashkilotlari esa foyda va zararni taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Shu bilan birga, Islom mikromoliyasida shartnomalar bilan bog'liq noaniqliklarning (g'arar) bo'lishiga cheklovlar qo'yilishi huquqiy va operatsion shaffoflikni talab qiladi. Ushbu talablar ma'lum moliyaviy institutlarning samarali faoliyatini qiyinlashtirishi mumkin, ammo ular qarz oluvchilar uchun xavfsizlik va adolatni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdelkader I. B., Salem A. B. Islamic vs conventional microfinance institutions: performance analysis in MENA countries //International Journal of Business and Social Research (IJBSR). – 2013. – T. 3. – №. 5. – C. 219-233.



2. Ahmad S., Lensink R., Mueller A. The double bottom line of microfinance: A global comparison between conventional and Islamic microfinance //World Development. – 2020. – T. 136. – C. 105130.
3. Andrikopoulos A. Delineating social finance //International Review of Financial Analysis. – 2020. – T. 70. – C. 101519.
4. Baland J. M., Guirkinge C., Hartwig R. Now or later? The allocation of the pot and the insurance motive in fixed roscas //Journal of Development Economics. – 2019. – T. 140. – C. 1-11.
5. Ghulamallah E. et al. The topics of Islamic economics and finance research //International Review of Economics & Finance. – 2021. – T. 75. – C. 145-160.
6. Hudon M., Labie M., Reichert P. What is a fair level of profit for social enterprise? Insights from microfinance //Journal of Business Ethics. – 2020. – T. 162. – №. 3. – C. 627-644.
7. IsDB. Islamic microfinance for women. 2020.
8. Moody J.C., Fite G. C. The credit union movement: Origins and development, 1850-1980. – Kendall/Hunt Publishing Company, 1984.
9. Muhamed N.A., Kamaruddin M.I.H., Mohamed Nasrudin N. S. Positioning Islamic social enterprise (ISE) //Journal of Emerging Economies & Islamic Research. – 2018. – T. 6. – №. 3. – C. 28-38.
10. Nabi G. et al. Islamic microfinance as a tool of financial inclusion in Bangladesh //Journal of Islamic Economics, Banking and Finance. – 2017. – T. 113. – №. 6218. – C. 1-28.
11. Nayak A. K. Developing social capital through self-help groups //Indore Management Journal. – 2015. – T. 7. – №. 1. – C. 18-24.
12. Pattnaik D., Ray S., Hassan M. K. Microfinance: A bibliometric exploration of the knowledge landscape //Heliyon. – 2024. – T. 10. – №. 10.
13. Robinson M. The microfinance revolution: Sustainable finance for the poor //The World Bank and Open Society Institute. – 2001.
14. Rozzani N., Mohamed I. S., Yusuf S. N. S. Risk management process: Profiling of Islamic microfinance providers //Research in International Business and Finance. – 2017. – T. 41. – C. 20-27.
15. Saptarshi M. et al. Microfinance and Its Models: A Model to Eradicate Poverty and Its Analysis. – International journal of advances in engineering and management, Volume 3, issue 6 June 2021, pp: 1538-1554.
16. Suzuki Y. et al. The Grameen Bank "empowering the poor" model of microcredit: An institutional comparison with the traditional mode of the Japanese banking system //The Journal of Comparative Asian Development. – 2011. – T. 10. – №. 1. – C. 129-156.
17. Tara S. Micro Finance in India //BVIMSR's Journal of Management Research. – 2016. – T. 8. – C. 92-101.
18. Tursunov A. Islomiy mikromoliyalashtirishning mazmuni, iqtisodiy zarurligi va ahamiyati. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 3, June 2022. ISSN: 2181-1016.
19. Tursunov A.S. Islomiy mikromoliyalashda "Vaqf" xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo'llari. Monografiya. T.: "Lesson Press", MCHJ nashriyoti 2023 – 194 b.
20. Usmani M. M. T. An introduction to Islamic finance. – Brill, 2021. – T. 20.
21. Zambrano A. F. et al. Rotating savings and credit associations: A scoping review //World Development Sustainability. – 2023. – T. 3. – C. 100081.
22. Zeller M. A comparative review of major types of rural microfinance institutions in



developing countries //Agricultural Finance Review. – 2006. – Т. 66. – №. 2. – С. 195-213.

23. Богатова А.А., Зотова А.И. История зарождения и развития микрофинансирования в зарубежных странах //Вестник науки и образования. – 2017. – Т. 1. – №. 6 (30). – С. 36-39.

24. Высоков Д.А. Развитие микрофинансирования: международный опыт и российская практика [Текст]: дис. канд. экон. наук, – Москва, 2023. – 198 с.

25. <https://www.un.org/en/observances/micro-small-medium-businesses-day>

26. <https://www.weforum.org/stories/2024/07/why-financial-inclusion-is-the-key-to-a-thriving-digital-economy/>

27. <https://www.worldbank.org/en/publication/poverty-prosperity-and-planet>